
FAOL TADBIRKOR YOSH TADBIRKORLAR BILAN UCHRASHDI

Dastlab M.Shermatov yosh tadbirkorlarga davlatimiz rahbari farmoyishiga binoan “Faol tadbirkor” ko’krak nishoni bilan taqdirlanganini hayajon bilan so’zlab berdi. – Davlatimiz biznes vakillarining mamlakatimiz iqtisodiyoti, kelajak ravnaqiga qo’shayotgan hissasini yuqori baholadi, – dedi M.Shermatov – Davlatimizda tadbirkorlar uchun qulay biznes muhiti yaratilib, keng imkoniyat, imtiyozlar berilmoqda. Demak, biz o’zimizga bildirilgan ishonchni oqlashimiz kerak. Faol tadbirkor uchrashuv qatnashchilariga kasbiy faoliyati, ilk qadamlari, yo’lida uchragan qiyinchiliklar, muvaffaqiyatlar va kelajak rejalar haqida so’zladi. Muloqot chog’i mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko’lamli islohotlar, moliya, iqtisodiyot, bank va boshqa sohalarga aloqador dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi. M.Shermatov talabalarni qiziqtirgan savollarga javob berdi. Yakunda kelgusida hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga kelishildi.

2023-09-16 05:24:13